

UUT: 633. 11. 631. 52. 59

# QOROQOLPOG'ISTON SHAROITIDA XAR XIL SHO'RLANISH FO'NIDA EKILGAN KUZGI YUMSHOQ BUG'DOY NAM UNALARINING MAHSULDORLIGI VA DONSIFAT KO'RSATGICHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14466711>

**Aberkulov Mardan Nurbaevich**

*Toshkent davlat agrar universiteti professori*

## Annotation

Qoroqolpog'iston sharoitida xar xil sho'rланish fonida ekilgan kuzgi yumshoq bug'doy nav namunalarining o'sish va rivojlanishi, mahsuldorligi, donining sifat ko'rsatgichlari o'rganildi. Ikki marta sho'ri yuvilgan dalaga ekilgan bug'doy navlari mahsuldorlik va don sifati ko'rsatgichlari bo'yicha bir marta sho'ri yuvilgan dalaga ekilgan bug'doy nav namunalariga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa bu qonuniyat Tanya, Bezostaya-1, Krasnodar-99, Utikul-96, Qoraqalpog'iston-100 navlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

## Kalit so'zlar

Tuproq sho'rланishi, stress-javob, vegetaciya davri, nav, namuna, konsentratsiya, agrafon, unuvchanlik, kleykovina, oqsil, genofond, andoza, ijobiy, salbiy.

**Kirish:** Sayyoramizning qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan ekin maydonining to'rdan bir qismi turli darajada sho'rangan bo'lib, olimlarning hisoblashicha 2050 yilga kelib qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan erlarning taxminan 50% sho'rланish ehtimoli mavjud [3]. Hozirgi kunda Qoraqalpog'istoon sharoitida suv tanqisligi natijasida erlarning ikkinchi bor sho'rланishi, tuproq eritmasida tuzlsar miqdorining o'simlik uchun muqobil darajasidan bir necha marta oshib ketishi kuzatilmoqda. Bu jarayon xududda o'simliklarning o'sib rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, hosildorlik va ularning sifat ko'rsatgichlarining pasayishiga olib kelmoqda. Shu bois o'simliklarning tuproq sho'rланishiga chidamlilagini oshirish hozirgi vaqtda seleksiyaning eng dolzarb muommalaridan biri hisoblanadi.

O'simliklarning har xil darajada sho'rланishga chidamliligi tur va populyatsiyalarning tabiiy sharoitda yashash tarzining uzoq evolyutsiya jarayonida, yoki sho'rланishga chidamlilikka yo'naltirilgan seleksiya natijasida shakllanadi [1]. Tuproq sho'rланishi hududimizda qishloq xo'jalik ekinlarini

shuning uchida bug'doy etishtirishda qiyinchiliklar tug'diruvchi asosiy omillardan biridir.

Tuproq sho'rланishi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga, suv almashinushi va ion gomeostazining buzilishiga, fotosintez va nafas olish jarayonlarining sekinlashishiga hamda hosildorlikning pasayishiga olib keladi [2, 4]. Shuning uchun xozirgi paytda sho'rangan tuproq sharoitida bug'doy o'simligidan yuqori hosil olish uchun tuproq sho'rланishiga chidamli bo'lgan navlarni yaratishni talab etadi. Navlarning sho'rga chidamliligin turli agrotexnik uslublar yordamiida, hamda seleksiya natijasida oshirish mumkin.

**Tajriba maqsadi va vazifasi:** Tadqiqot olib borishimizning asosiy maqsadi kuzgi yumshoq bug'doy namunalarini maxsuldarlik elementlari ko'rsatkishlari va don sifati bo'yicha baholab tahlil qilib eng yuqori natijalikka ega bo'lganlarini shorlanishga mosloshuvchanligini o'rganish. Qoraqolpog'istonning o'ta og'ir stress sharoitga mos yangi navlarni seleksiy yo'li bilan yaratish uchun birinchi navbatda, maskur talablarga to'liq javob beradigan boshlang'ich donor manbalarni aniqlash o'ta muhimdir.

Qoraqolpog'iston sharoitida bug'doydan yuqori sifatli don mahsulotiga ega, hosildor navlarni yaratish maqsadida kollekcion nav namunalar stress sharoitlarda mahsuldarlik elementlari ko'rsatkichlari boyicha baholab tanlab olish uchun ekib o'rganildi.

**Tajribaning metodikasi:** Tadqiqotlar Qoraqolpog'iston sharoitida Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining tajriba xo'jaligida olib borildi. Bu erda yumshoq bug'doyning jahon kolleksiyasiyaning 200 dan ortiq namunalari o'rganildi. Sho'rланishga chidamlilikni baholashda asosiy mezon sifatida nav o'simliklarning mahsuldarlik xususiyatlariga va don sifati ko'rsatkichlari boyicha baholanib tanlab olishga, e'tibor qaratildi. Namunalarini sho'rangan (dalaning sho'ri bir marta yuvilgan) va sho'rланmagan (dalaning sho'ri ikki marta yuvilgan) fon yoratib dalalarga ekildi.

Nomunalarni vegetaciysi davri davomiyligi, o'simlik poyasi uzunligi, maxsuldar poyalar soni, boshog'idagi donlar soni va vazni, 1000 dona don vazni va doninig sifat korsatkishlari boyicha tanlab olinadi.

**Tajriba natijalari.** Nav namunalarni o'rganib baholashda vegetaciysi davri davomiyligi eng ahamiyatli xususiyat hisoblanadi. Ma'lumki vegetaciya davri davomiyligi ko'rsatkichi asosan navning kelib chiqish mintaqasiga bog'liq bo'ladi.

### 1-jadval

**Har xil sho'rangan fonga ekilgan kuzgi yumshoq bug'doy nav namunalarining mahsuldarlik ko'rsatgichlari**

No	Nav namunalar	Fo'	Vegeta-	Bo'y	Boshoq	Mahsul	Boshoqdagi	1000
----	---------------	-----	---------	------	--------	--------	------------	------

T r	nomi		tsiya	g	uzun-	dor	don		dona
			davri	uzu	ligi,		soni,	vazni,	don
miy-					sm				vazni,
ligi,					sm				g
kun									g
1	Tanya	1*	252	71,2	9,1	3,3	34	1,35	42,0
		2*	245	62,6	8,5	2,6	28	1,09	40,3
2	Bezostaya-1	1*	250	71,7	7,8	3,5	40	1,33	41,0
		2*	243	67,5	6,8	3,3	36	1,13	37,0
3	Polovchanka	1*	248	65,5	7,6	4,0	37	1,40	38,0
		2*	243	59,9	7,1	3,7	29	0,98	34,0
4	Krasnodar-99	1*	245	64,5	7,9	3,2	41	1,36	40,2
		2*	237	60,4	7,2	3,0	34	1,10	37,2
5	O'tkir	1*	246	81,4	10,2	3,6	38	1,40	42,0
		2*	241	75,0	9,2	3,3	32	1,20	40,0
6	Aqmang'it	1*	249	74,8	9,3	3,7	39	1,48	48,0
		2*	246	68,1	8,2	3,2	34	1,20	46,0
7	Avoset	1*	246	73,7	9,8	3,8	39	1,51	43,0
		2*	242	68,7	9,0	3,3	32	1,13	42,0
8	Kerim	1*	236	89,8	7,7	4,1	29	1,08	38,0
		2*	233	84,5	6,9	3,4	25	0,90	36,0
9	Utiqul-96	1*	250	72,4	8,6	3,5	37	1,29	36,0
		2*	241	67,8	7,7	3,1	30	1,00	34,0
1	Д-107/ Uz 00124934	1*	249	80,5	10,0	3,2	31	1,43	49,0
		2*	242	73,9	8,4	3,0	29	1,30	46,0
1	Д-256 Grekum beliy ostey	1*	246	88,5	9,2	3,7	31	1,25	44,0
		2*	242	89,6	8,0	3,3	27	1,00	41,0
1	Qoraqolpog'iston-100	1*	245	87,5	10,2	2,9	52	1,90	41,1
		2*	240	80,0	9,0	2,5	44	1,67	38,6

Shu boyis bu xususiyatning o'zgaruvchanligin genotip va ekologo-geografik omil belgilab beradi. O'simlik boyi uzunligi boyicha sho'rланмаган fonda sho'rланган fonga nisbatan 7-8 sm uzun bo'lди. Maxsuldarlik elementlari ko'rsatkichlari boyicha nav va namunalar sho'ri ikki maratoba yuvilgan maydonlarda ustinlikka ega bo'lди (jadval-1).

Sho'rланган fo'nga ekilgan kuzgi yumshoq bug'doy namunalarining mahsuldarlik ko'rsatkichlari sho'rланмаган fonga nisbatan ancha past bo'lganligi kuzatildi. Ayniqsa bu farq bug'doyning vegetatsiya davrining davomiyligi, bo'uining uzunligi, mahsuldar poyalar soni ko'rsatkichlafrida yaqqol namoyon bo'lди. Vegetatsiya davrining davomiyligi bo'yicha sho'rланган fonga

ekilgan nav namunalar 3 kundan 9 kun oralig'ida erta pishib etildi. Bunda Tanya va Bezostaya-1 navlarida sho'rlanganga nisbatan farq 7 kunni, Krasnodar-99 navida 8 kunni, Utiquil-96 navida 9 kunni tashkil qiladi.

Ushbu hodisaning asosiy sababi bug'doy namunalari pishib etilganda sho'rangan sharaytda tuzning ko'p tuplanib o'simliklarni qisib tez pishishga majburlaganidan dep bilamiz. O'rganilib baholanib tanlab olingan nav va namunalar mahsuldarlik elementlari ko'rsatkichlari boyicha taxlil qilganimizda, ularning deyarli barchasi sho'rangan fonda andoza Tanya naviga nisbatan bashoqlarida ko'p sonli yirik donlarni shakllantira oladiganligi aniqlandi. Bular asosan D-107 Uz 00124934; Aqmang'it; Grekum beliy ostey; Avoset navlari kiradi. Tanlab olingan namunalar o'zlarida ko'p sonli ijobiy qimmatli xo'jalik belgilarini birlashtirishi bilan birga donining sifat ko'rsatkichlari qoniqarli miqdorga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Tahlil natiyjasida tanlab olingan bug'doy namunalarining don shaffofligi darajasi navdorlik belgi bo'lgani bilan, bu ko'rsatkichga tashqi muxitning ta'sir qilganligi aniqlanib sho'rangan tuproqlarda don shaffofligi pasayib ketganligi ko'zatildi. Pasayish darajasi har bir navning ta'sirchanlik reakciyasiga bog'liq bo'lib nav o'zgachaligi boyicha har xil ko'rsatkichga ega boladi.

O'rganilgan namunalarda don tarkibidagi oqsil hamda kleykovina miqdori navdorlik belgi bo'lib, bu ko'rsatkichlarga tuproqning sho'rلانish darajasi o'zining sal'biy ta'sirini ko'rsatib pasaytirib yuborganligi ma'lum bo'ldi. Tanlab ajratib olingan namunalar donida sho'rangan fonda oqsil miqdori 13,0-15,0 foyiz oraligida bo'lib, sho'rланmagan fonda bu ko'rsatkish 13,3-15,8 ga teng bo'ldi.

## 2-jadval

**Har xil sho'rangan fo'nga ekilgan kuzgi yumshoq bug'doy nav namunalari donining sifat ko'rsatkichlari**

No g g	Nav namunalari nomi	Sho'rla- nish jasi	Don shofof- %	Don namligi, %	Oqsil lori, %	Kleyko- vina lori, %	IDK ko'rsat- kichi
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Tanya	1*	57	12,4	13,3	28,0	94,3
		2*	54	12,0	13,0	26,0	100,0
2	Bezostaya-1	1*	61	11,4	14,6	29,0	90,0
		2*	59	11,3	13,9	27,0	99,0
3	Polovchanka	1*	59	9,9	14,7	28,4	91,5
		2*	55	11,0	14,0	28,0	100,5

4	Krasnodar-99	1*	62	10,2	15,3	28,0	100,9
		2*	60	11,0	14,2	26,0	104,4
5	O'tkir	1*	66	10,7	15,2	29,7	93,3
		2*	63	11,0	14,4	27,3	100,1
6	Aqmangit	1*	67	11,2	15,8	30,5	83,3
		2*	65	11,0	14,6	29,0	91,7
7	Avoset	1*	64	10,7	15,5	28,9	90,4
		2*	62	11,0	14,0	27,0	97,0
8	Kerim	1*	60	10,9	14,0	28,0	95,3
		2*	57	10,7	13,0	27,0	100,3
9	Utiqul-96	1*	63	9,4	15,8	29,0	91,7
		2*	60	10,7	14,2	28,0	99,8
1	Д-107 / Uz 00124934	1*	70	10,5	16,8	32,0	92,0
		2*	67	11,6	15,0	30,8	99,5
1	Д-256 Grekum Beliy ostey	1*	68	11,2	15,6	28,5	90
		2*	66	10,5	14,0	29,2	103,0
1	Qoraqlpog'ston-100	1*	67	11,0	15,6	29,2	92,3
		2*	65	11,0	14,2	27,4	97,9

Eslatma:1\*-Shorlanmagan fon-Dalaning sho'rini ikki marotaba yuvib ekilgan dala

2\*-Sho'rangan fon - Dalaning sho'rini bir marotaba yuvib ekilgan dala

Tahlil natijalariga ko'ra don tarkibidagi kleykovina miqdori 28,0 - 32,0 foyiz oraligida bo'lib, sho'rangan fonda bu ko'rsatkich 0,4-2,0% pasayib ketganligi ko'zatildi.

Donning IDK birligi tanlab olingan namunalarda 83,3 dan 100,9 atirofida bo'lib qoniqarli darajada bo'lganligi aniqlandi.

### Xulosa

1. O'rganilib tanlab olingan nav va namunalari mahsuldorligi ko'rsatkichlari donining sifat bo'yicha baholab tahlil qilganimizda ularning qoniqarli miqdorga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Ushbu ko'rsatkichlar navdorlik belgi bo'lgani bilan bu ko'rsatkichga tashqi muhit ta'sir qiladiganligi aniqlanib, tuproqning sho'ranganligi boyis ularning ancha pasayib ketishi kuzatildi. Pasayish darajasi har bir namunaning ta'sirchanlik reakciyasiga bog'liq bo'lib nav o'zgachaligi boyicha har xil ko'rsatkichga ega bo'ladi.

2. Bug'doy namunalarining don sifati ko'rsatkichlarini hisobga olib qimmatli xo'jalik belgilari yuqori bo'lgan hosildor yangi nav yaratish maqsatida ushbu

tanlab ajratib olingan namunalarni ota - ona juftlarini duragaylash ishlari foydalanishni tavsiya etamiz.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Аберкулов М.Н.,Бобаев С.К. Жаҳон коллекциясидан юмшоқ буғдой намуналарининг шўрхокликка чидамли шаклларини ажратиб олиш. Ўзбекистон Аграр фани хабарномаси.№ 4(78)2019,Тошкент,2019, 132-134 бет.
2. Бекназаров Б.О. Ўсимликлар физиологияси., – Тошкент, Алоқачи, 2009.- 535 б.
3. Ashraf M., Harris P.J.C. Potential biochemical indicators of salinity tolerance in plants // Plant Science. 2004. V.166. – P. 3 – 16.
4. Flowers T.J. Improving crop salt tolerance // J. Exp. Bot. 2004. V. 55. – P. 307 – 319. – P. 307 – 319.

### **MUALIF HAQIDA MALUMOT**

Aberkulov Mardan Nurbayevich. Toshkent davlat agrar universiteti. Ekoloziya va botanika kafedrasи professori. Telefon:+99897 146-19-48. E-mail: maberkulou@mail.ru